

M-LEARNING TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO’LAJAK TARBIYACHILARNING TASVIRIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedova Nazokat Erkinovna
Xalqaro Nordik universiteti katta o’qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi
E-mail: n.axmedova@nordicuniversity.org
ORCID: 0000-0002-3775-9243

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21130777>

Annotatsiya. Ushbu maqolada M-learning texnologiyalarining bo’lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan. Xalq amaliy san’ati buyumlarining 3D modellari, mobil ilovalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali talabalarning tasviriy savodxonligi, fazoviy tasavvuri hamda ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mobil ta’limning mustaqil o’rganish va ta’lim jarayonining interaktivligini oshirishdagi o’rni asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: M-learning, mobil ta’lim, bo’lajak tarbiyachi, tasviriy faoliyat, 3D modellar, xalq amaliy san’ati, ijodiy kompetensiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ К ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ M- LEARNING

Аннотация. В данной статье раскрывается значение технологий M-learning в подготовке будущих воспитателей к изобразительной деятельности. Проанализированы возможности развития художественной грамотности, пространственного мышления и творческих компетенций студентов посредством использования 3D-моделей объектов народного прикладного искусства, мобильных приложений и инструментов искусственного интеллекта. Также обоснована роль мобильного обучения в организации самостоятельного обучения и повышении интерактивности образовательного процесса.

Ключевые слова: M-learning, мобильное обучение, будущий воспитатель, изобразительная деятельность, 3D-модели, народное прикладное искусство, творческая компетентность.

IMPROVING THE PREPARATION OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS FOR VISUAL ART ACTIVITIES BASED ON M-LEARNING TECHNOLOGIES

Abstract. This article highlights the importance of M-learning technologies in preparing future preschool teachers for visual art activities. The study analyzes the opportunities for developing students’ visual literacy, spatial thinking, and creative competencies through the use of 3D models of folk applied art objects, mobile applications, and artificial intelligence tools. It also substantiates the role of mobile learning in supporting independent learning and enhancing the interactivity of the educational process.

Keywords: M-learning, mobile learning, future preschool teacher, visual art activities, 3D models, folk applied art, creative competence.



Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo’lmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yo’nalishida tahsil olayotgan bo’lajak tarbiyachilarni tasviriy faoliyatga tayyorlashda innovatsion pedagogik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”da maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan talablar belgilangan bo’lib, xususan, “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasida bolalarning predmetlarning shakli, hajmi, materiali va rangini farqlashi, geometrik shakllarni tanishi hamda buyumlarni turli belgilariga ko’ra guruhlashi nazarda tutilgan bo’lsa, “Ijodiy rivojlanish” sohasida tasviriy faoliyat jarayonida kompozitsiyalar yaratish, loy va plastilindan turli shakllar yasash, tasavvur asosida yangi obrazlar yaratish hamda mustaqil ijodiy g’oyalarni ilgari surish kabi kompetensiyalarni shakllantirish ko’zda tutilgan [1].

M-learning texnologiyalari esa elektron ta’limning yangi avlodi sifatida mobil qurilmalar orqali interaktiv ta’lim muhitini yaratadi. “M-learning is the next generation of E-learning” nomli ilmiy manbada mobil texnologiyalar yordamida ta’limning vaqt va makon bilan chegaralanmasligi, talabalarning mustaqil va reflektiv o’rganishi qo’llab-quvvatlanishi ta’kidlangan [2].

Mobil ilovalar orqali fanlarni o’rganish nisbatan yangi usul bo’lib, bugungi kunda mashhurlik kasb etmoqda [3]. Zamonaviy mobil qurilmalarning texnik xarakteristikalarini, ya’ni qurilmalar uchun yaratilgan maxsus ilovalar va veb-saytlar yordamida ta’lim oluvchilar uchun masofaviy ta’lim olish imkoniyatini yaratadi [4].

Tadqiqotlarda ta’kidlanganidek [5], mobil texnologiyalar evolyutsiyasi ta’lim jarayonini doimiy ravishda transformatsiya qilib, unga innovatsion yechimlarni joriy etmoqda. Xususan, bunday raqamli vositalarning ta’limga integratsiyasi o’quv materiallarini o’zlashtirish ko’rsatkichlarini optimallashtirish bilan birga, ta’lim oluvchilarning auditoriyadan tashqari mustaqil bilim olish va o’z ustida ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, bo’lajak tarbiyachilarning kasbiy va metodik tayyorgarlik darajasiga bog’liqdir. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish faolligi, estetik did, tasviriy savodxonlik va ijodiy tafakkurni rivojlantirish pedagogdan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini puxta egallashni, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion yondashuvlarni qo’llashni talab etadi. U.M.Xalikovaning tadqiqotida multimedia texnologiyalarining maktabgacha ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilib, vizual va interaktiv vositalardan foydalanish bolalarning bilish jarayonlarini faollashtirish, o’quv materiallarini samarali o’zlashtirish hamda ta’lim jarayoniga qiziqishni oshirishga xizmat qilishi ta’kidlangan [6]. Mazkur ilmiy qarashlar xalq amaliy san’ati asosidagi 3D modellar, mobil ilovalar va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning pedagogik ahamiyatini asoslashda muhim metodologik manba bo’lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, xalq amaliy san’ati namunalari ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Kulolchilik, kashtachilik, yog’och o’ymakorligi, misgarlik va boshqa milliy san’at namunalari bolalarda nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki shakl, simmetriya, proporsiya, rang va fazoviy munosabatlarni idrok



etish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Biroq ushbu buyumlarni barcha ta'lim muassasalarida natura sifatida namoyish etish imkoniyati cheklanganligi sababli, ularni raqamli texnologiyalar asosida taqdim etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xalq amaliy san'ati buyumlarining 3D modellari, mobil ilovalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish mazkur muammoning samarali yechimi sifatida xizmat qiladi. 3D modellar yordamida bo'lajak tarbiyachilar buyumlarning geometrik tuzilishi, konstruktiv xususiyatlari va hajmiy ko'rinishini turli rakurslarda kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mobil ilovalar esa M-learning texnologiyalari asosida istalgan joy va vaqtda ta'lim olish, mustaqil o'rganish va bilimlarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Sun'iy intellekt vositalari esa obyektlar haqidagi ma'lumotlarni tezkor taqdim etish orqali ta'lim jarayonining interaktivligini oshiradi.

Natijada bo'lajak tarbiyachilar xalq amaliy san'atining pedagogik, estetik va tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqur o'zlashtirgan, raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan, bolalarning bilish jarayonlari va ijodiy rivojlanishini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etuvchi kompetent mutaxassis sifatida shakllanadi. Bu esa o'z navbatida “Ilk qadam” davlat o'quv dasturida belgilangan kutilayotgan natijalarga erishish hamda maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5179335?ONDATE=23.12.2020%2000#-5181775>
2. https://www.researchgate.net/publication/269780058_What_is_the_future_of_mobile_learning_in_education
3. Sultonova, M. T. (2020). O'quvchilarning mustaqil bilim olishida mobil ilovalarning o'rni. Ta'lim va innovatsiya ilmiy-amaliy jurnali, 5(2), 58–63.
4. Geddes, S. (2004). Mobile learning in the 21st century: benefit for learners.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayonida-mobil-ilovalardan-foydalanishning-pedagogik-asoslari/viewer>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-samaradorligida-multimedia-texnologiyasining-o-rni/viewer>
7. Akhmedova, N. (2023). EMBROIDERY IN UZBEKISTAN: A RICH HISTORY AND PRACTICAL CRAFTSMANSHIP. *Science and innovation*, 2(C5), 81-84.
8. Axmedova, Nazokat Erkinovna, & Xalikulova, Hilola Axatullayevna (2025). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5 (10), 189-192.